KUCH ADOLATDADIR Amir TEMUR

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN // HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA // ISSN 2181 - 483X WWW.ANDIJONSADOSI.UZ // № 46 (576) 2025-YIL, 18-OKTABR

21-oktyabr – o'zbek tiliga davlat tili maqomi maqomi berilgan kun

TILGA HURMAT - ELGA HURMAT



O'zbekiston qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov til haqida bunday degan:

"Ona tilim, sen borsan, shaksiz
Bulbul kuyin she'rga solarman.
Sen yo'qolgan kuning shubhasiz,
Men ham to'ti bo'lib qolurman".

Ha, har bir shaxsning aytar so'zi va his tuyg'ularini ifodalashga o'z tili bo'lmog'i zarur. Yo'qsa, shoir aytganidek to'tidan hech qanday farqi qolmaydi.

Til millat ko'zgusi, uning g'ururi, tafakkur manbai. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek: "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur".

Hozirgi kunda Yer yuzida 7 mingdan ziyod til mavjud bo'lsa, ularning faqat 200 ga yaqini davlat tili yoki rasmiy til maqomiga ega. Davlat tili maqomini olgan shu ikki yuzga yaqin til orasida Ona tilimizning borligidan qancha g'ururlansak shuncha kam. Sobiq ittifoq hukmronlik qilib turgan bir paytda – 1989-yilning 21-oktyabrida "Davlat tili haqida"gi Qonunning qabul qilinishi va uning 1-moddasida "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir" deb, belgilab qo'yilishi mamlakatimiz mustaqilligi sari qo'yilgan birinchi va muhim qadamlardan biri sifatida baholanadi.

Shu o'rinda qonunda keltirib o'tilgan qoidalarga to'xtalib o'tamiz.

Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va ularga yuklatilgan majburiyatlar, undiriladigan yig'imlar, to'lovlar, soliqlar – bularning barchasi normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi.

Shu sababli har bir normativ-huquqiy hujjatning o'zbek tilida bo'lishi bu eng muhim talablardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining, hokimliklarning boshqa hujjatlari (buyruq, qaror, nizom va boshqalar) o'zbek tilida qabul qilinishi va e'lon qilinishi lozim.

Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e'lon qilinishi mumkin.

Davlat tashkilotida ham, xususiy tashkilotda ham ish yuritish o'zbek tilida bo'lishi lozim.

Qonunchilikda korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari o'zbek tilida yuritilishi mustahkamlangan.

Ushbu normada o'zbek tilida ish yuritishga oid talab faqat davlat korxonalari uchun emas, balki har qanday tashkilotda, u tadbirkor bo'ladimi yoki nodavlat notijorat tashkilotimi, ularning har birida o'zbek tilida ish yuritish kerakligi belgilangan.

Ishlovchilarining ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda esa o'zbek tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham ish yuritish amalga oshirilishi mumkin.

Shuningdek, turli yig'ilishlar, jumladan Qonunchilik palatasi va Senat yig'ilishlari ham o'zbek tilida bo'lishi kerak.

Sudda ishlar o'zbek tilida yuritiladi.

Sudlov ishlarini yuritish o'zbek tilida yoki o'sha joydagi ko'pchilik aholi tilida olib boriladi. Sud ishi yuritilayotgan tilni bilmaydiganlar uchun tarjimon yollanadi.

Notarial harakatlar, fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar ham o'zbek tilida rasmiylashtiriladi.

Mazkur hujjatlar zaruratga ko'ra boshqa tillarda (tarjimasi) berilishi ham mumkin.

Har qanday e'lon, tovarlardagi matnlar ham o'zbek tilida bo'lishi kerak.

Lavhalar, e'lonlar, narxnomalar va boshqa ko'rgazmali hamda og'zaki axborot matnlari, korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulotlardagi yorliqlar, yo'riqnomalar, etiketkalar, geografik obyektlarning nomlari, televideniye va radio eshittirishlari, noshirlik faoliyati, pochta-telegraf jo'natmalari, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlarining matnlari o'zbek tilida bo'lishi kerak.

Mazkur ma'lumotlar zaruratga ko'ra boshqa tillarda berilishi ham mumkin.

Davlat xizmatiga kirish uchun o'zbek tilini bilish shart.

Davlat fuqarolik xizmatiga, ya'ni vazirliklar, agentliklar, qo'mita va boshqalarga ishga kirish shartlaridan biri o'zbek tilini bilish hisoblanadi.

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - TARAQQIYOT KAFOLATI

O'zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

BOLALAR KORRUPSIYAGA QARSHI:

ULAR OTASINI QAMALIB KETISHINI XOHLASHMAYDI

Korrupsiya – bu jamiyatdagi eng katta muammolardan biri bo'lib, u nafaqat iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir qiladi, balki ijtimoiy va ma'naviy muammolarni ham yuzaga keltiradi. O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosati darajasida olib borilmoqda, ammo bu masalaga oid nuqsonlar hali ham mavjud. Shu o'rinda korrupsiyaning ayrim jamoat a'zolari, ayniqsa bolalarga qanday ta'sir etishi haqida fikr yuritamiz.

Bolalar nima uchun otalarini himoya qiladi?

Ko'pincha korrupsiya to'g'risidagi muhokamalar kattalar orasida kechadi. Ammo bolalar ham bu muammoga bevosita yoki bilvosita ta'sir qiladi. Bolalarning korrupsiyaga qarshiliklari, ayniqsa, ularning otalari qamalishidan qo'rqishi bilan bog'liq.

Otalarining korrupsiyada ayblanishi yoki qamalishi — bu bolalar uchun katta psixologik zarba. Ular otasini hayotdagi asosiy ustun va himoyachi sifatida ko'radi. Shuning uchun ham bolalar otalarining qamalishini xohlashmaydi, ular uchun bu – nafaqat iqtisodiy qiyinchilik, balki ruhiy azob ham beradi.

(Davomi 3-betda).

BIROVGA CHOH QAZISANG...

Lazokat Ergasheva biron joyda foydali mehnat bilan shug'ullanmaydi.

"Mehnat qilib sariq chaqa topguncha, ishonuvchan odamlarni aldash orqali topish osonroq. Qolaversa, bunda birdaniga ko'pgina topish mumkin." deya o'ziga firibgarlikni kasb qilib oladi.

Albatta qonunga zid ish fosh bo'lmay qolmaydi. Uni avvalgi ana shunday xatti-harakatlari uchun muqaddam jinoyat ishlari bo'yicha Shahrixon tuman sudining 2020-yil 13-martdagi hukmiga asosan Jinoyat kodeksining 168-moddasi 4-qismi "a" bandi, 28-, 211-moddasi 3-qismi "a" bandi bilan aybli deb topilib, 6 oy 18 kun muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan edi. Hozirda ushbu jazosi axloq tuzatish ishlari jazosiga almashtirilib, jazo ijro etilayotgan bo'lsa-da, bundan o'ziga tegishli xulosa chiqarmasdan, yana jinoyat yo'liga qadam bosadi.

Lazokat xavfli retsidivist bo'lgani holda, takroran jinoyat sodir etish yo'liga kirib, noqonuniy yo'llar bilan daromad orttirishni o'z oldiga maqsad qilib, ushbu g'araz va past maqsadini amalga oshirish yo'lida faol harakat qiladi.

(Davomi 2-betda).

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - TARAQQIYOT KAFOLATI
O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

Munosabat

ILLATNI TUB ILDIZI BILAN YO‘QOTA OLAMIZMI?



Hayotimizning har jabhasida korrupsiya degan atamaga duch kelamiz, Uning nima ekanligini har birimiz o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rganmiz, bilamiz. Ba’zida nafratlanganmiz, ba’zida oddiy hol sifatida qabul qilganmiz.

11-sinfni bitirayotganimda, umuman darsga kelmagan, o‘zlashtirishi biroz pastroq bo‘lgan qiz onasining direktor o‘rinbosari lavozimida ishlagani tufayli maktabni a’lo darajali shahodatnoma bilan tamomladi. O‘sha vaqtlar men umuman deyarli dars qoldirmasdim, onam doim maktabga majburlab jo‘natardilar. Menga doimo mas’uliyatli bo‘lishimni, a’lo darajali shahodatnoma va oltin medal olishimga umid qilardilar. Ammo harakatlarim bekor bo‘ldi...

Biz har joyda, televizorda, telefonda, turli xil reklamalarda «Korrupsiyaga qarshimiz!», «Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashaylik!» kabi ruhlantiruvchi, harakatga undovchi gaplarni juda ko‘p eshitamiz.

Afsuski, korrupsiyani tub ildizi bilan yo‘q qilib bo‘lmaydi. Buning ham o‘ziga yarasha sabablari bor. Buni sabablari biri xalqning moliyaviy jihatdan pulga ehtiyoj sezishida deb bilaman.

Odamlar sekin-asta mansabga ko‘tarilgani sayin bosar-tusarini bilmay “o‘zidan ketishi” oqibatida o‘zidan o‘zgani o‘ylamay qo‘yadi va maishatga, dunyo lazzatiga berilishadi.

Bu dunyoda har bir narsaning javobi borligini esa esidan chiqarishadi. Yuqorida keltirilganidek, korrupsiyaning asosiy ikkinchi sababi aholining pulga ehtiyoj sezishida. “Tekinga mushuk oftobga chiqmaydigan” bir paytda hamma narsa pulga borib taqaladi. Kattalar farzandimni yedirishim, ichirishim, shartnomada o‘qitishim kerak deb yurishadi. Axir oylik maosh nimagayam yetsin?! Ular majbur bo‘lishadi birovning ishini hal qilib berish uchun qo‘shimcha haq olishga.

Bundan bir yil avval, shifoxonaga borganimda, tahlillarni tekshirib beruvchi ayol tezroq tekshirib berishi uchun bir qizdan pul so‘raganini ko‘rgandim. Unga negadir rahmim kelgandi, korrupsiyaga qo‘l urganida, ya’ni, qo‘shimcha haq so‘raganida ko‘zlari javdirab, yomon ahvolga tushib qolganini ko‘rgandim. Kambag‘alchilik qursin, insonni har baloga solib qo‘yadi. Balki oylik maoshlar ham oshib, narx-navo ham oddiy ishchining oyligiga mutanosib qilinsa, rostdan ham korrupsiya kamaygan bo‘larmidi?!

Korrupsiya - tanish-bilishchilik. Ishga joylashtirib qo‘yish, biror bir ishning oson bitishi - bu ham korrupsiya. Ammo tanish-bilishi bo‘lmaganlar haqiqatdan qiynaladi. Shifokorlik sohasida o‘qib yurgan, tanishi yo‘q 5-kurs talabasi haliyam ish topolmay, og‘ir mehnatda ishlab yuribdi. Shifokor tanishi bo‘lgan 1-kurs talabasi esa mazza qilib malaka oshirib yuribdi.

Shu o‘rinda bir narsani aytish kerakki, birovning haqqi hech qachon boshqaga buyurgan emas. O‘zida bo‘lishiga qaramasdan pul talab qilish tilanchilik bilan barobar. O‘tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» romanida ham korrupsiya haqida muallifning nafrati tasvirlangan. Birovning haqqi-qarz, korrupsiya o‘g‘rilikdir. Mana shu birgina korrupsiya deb qanchadan qancha insonning umriga zomin bo‘lish hech gap emas. Bir bilimsiz shifokor deb begunohlar o‘lim topishi, o‘qituvchi deb butun bir millat ilmsiz bo‘lib qolishi hech gap emas.

Korrupsiyani yo‘qotish uchun xalqning ahvolini yengillashtirish, millatni ilmli qilish va to‘g‘ri tarbiyalash kerak.

Zebo OLIMOVA,
Andijon Davlat Universiteti
1-kurs talabasi.

BOLALAR KORRUPSIYAGA QARSHI: ULAR OTASINI QAMALIB KETISHINI XOHLASHMAYDI

(Davomi. Boshi 1-betda).

Keyinchalik katta bo‘lganlarida bolalar korrupsiya muammosining jamiyatga xavfliligini yaxshiroq tushuna boshlaydi. Lekin kichik yoshdagi bolalar uchun bu tushuncha murakkab va noaniqdir. Ular uchun asosiy muhim narsa – otasining yoki oila a’zolarining hayoti va tinchligi.

Qanday qilib korrupsiya bolalar hayotiga ta’sir etadi?

1. Iqtisodiy qiyinchiliklar: Otasining qamalishi yoki korrupsiyaga aloqador ayblar tufayli oila moliyaviy jihatdan qiynalib qolishi mumkin. Bu bolalarning ta’lim olish, sog‘liqni saqlash va o‘yin-kulgiga sarflanadigan mablag‘ni kamaytiradi.

2. Psixologik stress: Oiladagi notinch vaziyat bolalarda stress, o‘ziga ishonchni yo‘qotish va hatto depressiyaga olib kelishi mumkin.

3. Ijtimoiy qoloqlik: Qo‘shnilar va do‘stlar orasidagi munosabatlarda muammolar yuzaga kelishi, bolalarning ijtimoiy faolligi pasayishi mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda bolalarning roli

Bolalar korrupsiyaga qarshi kurashishda to‘g‘ridan to‘g‘ri ishtirok etmasalar ham, ularning bilimli va sog‘lom fikrga ega bo‘lishi juda muhim. Bolalarni adolat, haqiqat va insoniylik qadriyatlariga tarbiyalash, ularda korrupsiyaga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirish – bu kelajak uchun muhim investitsiyadir.

Oila va jamiyatning vazifasi

• Ota-onalar: Bolalarga korrupsiyaning qanday zararli ekanligini sodda va tushunarli tilda tushuntirish kerak. Ularga adolat va haqqoniyatning ahamiyatini o‘rgatish zarur.

• Maktablar va ta’lim muassasalari: Bolalarga etika, huquqiy madaniyat va jamiyatdagi to‘g‘ri munosabatlar haqida ta’lim berish kerak.

• Davlat va jamoat tashkilotlari: Korrupsiyaga qarshi kurashishda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, oilalarga psixologik yordam ko‘rsatish muhim.

Xulosa

Korrupsiya nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy muammo, balki u jamiyatning har bir a’zosining, xususan, bolalarning hayotiga ta’sir qiladigan salbiy holatdir. Bolalar otasining qamalishini xohlamasliklari – ularning insoniy, ruhiy va ijtimoiy talablari bilan bog‘liq. Shuning uchun korrupsiyaga qarshi kurashishda bolalarni tushunish, ularga g‘amxo‘rlik qilish va ularni sog‘lom muhitda tarbiyalash muhimdir.

Zaynobiddin QODIROV,
O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zosi.

Jinoyat va jazo

BIROVGA CHOH QAZISANG...

(Davomi. Boshi 1-betda).

Kunlardan bir kuni Lolaxon Jalilovaning uy-joyga ehtiyoji borligidan xabar topadi. Uni oldiga borib:

- Lolaxon, turmush sharoitingizdan xabarim bor. Shuning uchun sizga yordam bermoqchiman.

- Voy singlim, meni taniysizmi?

- Ezgu ish qiladiganlar tanimaganlarga ham yordam beraveradi.

- Shundaymi? Qanday yaxshi ayol ekansiz.

- Ha, endi siz kabi opalarga yordam beraylik deb yuribmiz-da.

- Juda yaxshi, xursandman.

- Endi menga ishonsangiz, bor muammoyingizni aytib bering.

- Oilaviy sharoitimdan xabardor ekansiz. Davlat tomonidan tekinga beriladigan uydan olmoqchiman. Bir necha yildan beri yuguraverib, sillam quridi. Ololmayapman.

- Ha, opa. Shu ham muammo bo‘libdimi?

- Ha, singlim, men uchun muammo. Chunki hal bo‘lmayapti.

- Hech tashvishlanmang. Muammoyingizni hal etishda ko‘maklashaman.

- Muammoyim bilan shug‘ullanadigan tashkilotda ishlaysizmi?

- Yo‘q, men ishlamayman. Tanishim bor. O‘sha orqali muammoyingizni hal qilamiz.

- Qaniydi, hal bo‘lib qolsa.

- Siz kerakli odamlarga uchramagansiz.

- Kimga uchrashni bilmadim-da!

- Mana men sizni ana shunday insonlarga uchrashtirib qo‘yaman.



- Qanday yaxshi.

- Endi, opajon. O‘zingiz bilasiz. Har bir ishni hal qilish uchun chiqimini ko‘tarish kerak bo‘ladi.

- Chiqimi qancha bo‘ladi?

- 1500 dollar bersangiz bo‘ldi. Birinchi beriladigan uy ro‘yxatiga kiritib qo‘yadi.

- Menda buncha pul yo‘q-da.

- Mayli bor pulingizni berib turavering. Keyin qarindosh va tanishlaringizdan olib beraverasiz.

- Bo‘pti, agar hal bo‘ladigan bo‘lsa berganim bo‘lsin!

Ular bir birlarini telefon raqamlarini yozib olgach, xayrlashdi.

Lolaxon uyiga kirib, o‘ylandi. “Yaxshi ayol ekan. O‘zi uchun oladimi desam, bunaqaga o‘xshamayapti. Mashinasi bor ekan, nazari to‘q ayolga o‘xshayapti. Mayli, yomon gumonga bormay. Ishni bitkazaman deyapti-ku! Tanishi ham viloyatda ishlarkan. Oson bitkazsa kerak.”

Ertasi kuni Lazokat Lolaxondan talab qilingan pullardan 350 AQSH dollarini oladi. Oradan ikki kun o‘tib yana 200 AQSH dollarini olish uchun borganda o‘zining boshqaruvidagi “Spark” rusumli avtomashina salonida olgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlandi.

Endi Lazokatni fikri xayoli qanday qilib bo‘lsa ham jazodan qutilib qolish bo‘ladi. Shuning uchun advokatlar oldiga boradi.

- Aka, boshimga ish tushdi.

- Nima bo‘ldi?

- Bitta uyga muhtoj ayol yordam bering deb kelgan edi. Unga rahmim kelib, yordam bermoqchi bo‘ldim.

- Beminnat yordam bo‘lmagandir.

- Albatta, bilasizu, har qanday ish chiqimsiz hal bo‘lmaydi. Men ham o‘zimga emas, ishni hal qiladiganlarga berish uchun so‘ragan edim. Pastkash 1500 dollarni ham bo‘lib-bo‘lib berayotgan edi. Shunday bo‘lsa ham meni ushlatib qo‘ydi. Jinoyat ishi Andijon shahar prokuraturasining ish yurituvida. Mana shu jinoyat ishida advokat bo‘lib yordam bersangiz.

- Bo‘pti, belgilangan to‘lovlarni to‘lasangiz, yordam beraman.

Shundan keyin advokat ish boshlaydigan bo‘ldi.

Lazokat ertasi kuni kelib:

- Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llashmoqchi.

- Garov qo‘llashni so‘rab ko‘raman.

- Siz so‘rab ko‘rmang, shuni hal qilib bering. Qancha desangiz beraman. Faqat qamoqni qo‘llashdan olib qoling.

- Menga pulingiz kerak emas. Bu masala qonun doirasida ko‘rib chiqiladi. Lozim topsa, garov sifatida ochiqda qolishingiz mumkin.

Lazokat advokatni oldidan chiqib, “Meni gapimga kirmaganlarni holi nima bo‘lishini ko‘rasan” deya to‘g‘ri huquqni muhofaza qiluvchi organga bordi. Advokati Fayzulla mazkur jinoyat ishi bo‘yicha Lazokatga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llamasligi uchun undan 5000 AQSH dollari miqdoridagi pullarni talab qilganligi to‘g‘risida yolg‘on xabar berib, bila turib himoyachini pora talab qilishda ifodalangan og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatni sodir etganligi bo‘yicha ayblash bilan tuhmat qildi.

Olib borilgan surishtiruv va tergov harakatlari davomida har bir xatti-harakatga huquqiy baho berildi. Shunday qilib, L.Ergasheva o‘zining yuqoridagi barcha jinoiy harakatlari bilan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 139-moddasi 3-qismi “a” va “g” bandlari, 168-moddasi 4-qismi “b” bandi, 25, 168-moddasi 4-qismi “b” bandi, 28, 211-moddasi 2-qismi “a” bandi va 237-moddasi 2-qismi “b” va “g” bandlarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan.

Unga nisbatan qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi yakunlanib, ayb e’lon qilinib, sud muhokamasiga yuborildi.

Lazokat xalqimizning “Birovga choh qazisang, o‘zing tushasan” degan maqolni unutib qo‘ydi. Oxir oqibat panjara ortiga yo‘l oldi.

Har qanday jinoyat jazosiz qolmaydi.

Dilbar ABDUMAJIDOVA,
“Adolat mezoni” muxbiri.

BITIMNING NOTARIAL SHAKLIGA VA UNI RO‘YXATDAN O‘TKAZISH TALABIGA RIOYA QILMASLIKNING OQIBATLARI.

BITIMLARNI HAQIQIY EMAS DEB TOPISH ASOSLARI

Fuqarolik kodeksining 2-paragrafi aynan bitimlarning haqiqiy emasligi haqida. Bitimning notarial shakliga yoki uni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish talabiga rioya qilmaslik bitimning haqiqiy emasligini keltirib chiqaradi. Bunday bitim o‘z-o‘zidan haqiqiy bo‘lmaydi.

Qonunchilikning talablariga muvofiq kelmaydigan mazmundagi bitim, shuningdek huquq-tartibot yoki axloq asoslariga atayin qarshi maqsadda tuzilgan bitim o‘z-o‘zidan haqiqiy emasdir.

O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan shaxs tomonidan tuzilgan bitim o‘z-o‘zidan haqiqiy emas, ushbu Kodeks 29-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan bitimlar bundan mustasno.

O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan shaxs tomonidan ushbu Kodeksning 27-moddasiga muvofiq uning ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki homiysining roziligi talab qilinadigan hollarda ularning roziligisiz tuzilgan bitim ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki homiysining da’vosi bo‘yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Qonunga ko‘ra, muomalaga layoqatsiz deb topilgan va muomala layoqati cheklangan fuqaro tomonidan tuzilgan bitimlar ham haqiqiy emas hisoblanadi.

Muomalaga layoqatli bo‘lsa-da, biroq bitim tuzish vaqtida o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan holatda bo‘lgan fuqaro tomonidan tuzilgan bitim va jiddiy ahamiyatga ega bo‘lgan yanglishish ta’sirida tuzilgan bitim yanglishish ta’sirida harakat qilgan tarafning da’vosi bo‘yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Aldash, zo‘rlik, qo‘rqitish, bir taraf vakilining ikkinchi taraf bilan yomon niyatda kelishishi ta’sirida tuzilgan bitim, shuningdek fuqaro og‘ir holatlar yuz berishi tufayli o‘zi uchun o‘ta noqulay shartlar bilan tuzishga majbur bo‘lgan, ikkinchi taraf esa bundan foydalanib qolgan bitim (asoratli bitim) jabrlanuvchining da’vosi bo‘yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Yuridik oqibatlar tug‘dirish niyati bo‘lmagan holda, nomigagina tuzilgan bitim (qalbaki bitim) o‘z-o‘zidan haqiqiy emasdir.

Agar bitim boshqa bitimni niqoblash maqsadida tuzilgan bo‘lsa (ko‘zbo‘yamachilik bitimi), taraflar haqiqatda nazarda tutgan bitimga doir qoidalar qo‘llaniladi.

Yuridik shaxs tomonidan uning ustav maqsadlariga zid holda tuzilgan yoki tegishli faoliyat bilan shug‘ullanishga litsenziyasi bo‘lmagan yuridik shaxs tomonidan tuzilgan bitim uning muassisi (ishtirokchisi) yoki vakolatli davlat organining da’vosi bo‘yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Bitimni notarial tasdiqlash yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazishdan asossiz ravishda bosh tortish huquqbuzarlik hisoblanadi va bosh tortgan tarafga bitimni rasmiylashtirishni kechiktirish tufayli ko‘rilgan zararni to‘lash majburiyatini keltirib chiqaradi. Qonunda zararlarni to‘lash to‘g‘risida aytib o‘tilgan. Ularga haqiqiy zarar, shuningdek «boy berilgan foyda» oddiy fuqarolik muomalasi sharoitida shaxs, agar uning huquqlari buzilmaganda, olishi mumkin bo‘lgan, biroq huquqbuzarlik sababli olinmagan daromadlar kiradi.

Gulnoraxon MATKARIMOVA,
Andijon shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

VORISLIK HUQUQI

Xalqimiz o‘rtasida meros deganda, vafot etgan shaxsdan qolgan mol-mulk tushuniladi.

Hayotda har bir shaxs boshqa shaxslar bilan turli munosabatlarda bo‘ladi. Bu munosabatlar, albatta, shaxsning erkin irodasi bilan vujudga keladi. Vaqt o‘tishi bilan bir munosabat bekor bo‘ladi, ikkinchisi vujudga keladi. Ularning barchasi shaxsiy yoki mulkiy munosabatlar bo‘lib, ma’lum bir me’yorlar bilan tartibga solinadi. Munosabatda turgan har bir shaxs muayyan bir huquq va majburiyatlarga ega bo‘ladi. Bunday huquq va majburiyat, qoida tariqasida, shaxs vafot etgandan so‘ng ham o‘z kuchini saqlab qoladi. Boshqacha qilib aytganda, shaxsning vafot etishi bunday huquq va majburiyatlarning bekor bo‘lishiga olib kelmaydi.

Fuqaro vafot etgandan keyin uning barcha huquq va majburiyatlari o‘z kuchini saqlab qolmaydi, ayrimlari bekor bo‘ladi.

Vafot etgan shaxsning hayotligida boshqa shaxsga o‘tishi mumkin bo‘lgan huquq va majburiyatlari meros tariqasida uning vorislariga o‘tadi.

Shunday qilib, shaxsning hayotligida boshqa shaxslarga o‘tishi mumkin bo‘lgan uning har qanday huquq va majburiyatlari meros hisoblanadi va vorislik huquqi asosida merosxo‘rlarga o‘tadi.

Aniqroq qilib aytganda, vafot etgan shaxsga tegishli bo‘lgan mulk – uy-joy, avtomashina va boshqa mol-mulklarga nisbatan bo‘lgan mulk huquqi meros tariqasida o‘tadi.

Fuqarolik qonunchiligida meros huquqi, vorislik asoslari, meros tarkibi, merosning ochilishi, merosxo‘rlar tizimi va noloyiq merosxo‘rlarni merosdan chetlatish asoslari, vasiyat bo‘yicha vorislarning umumiy qoidalari, merosdan majburiy hissa olish huquqi, merosni muhofaza qilish, uni boshqarish, merosni egallashning umumiy qoidalari, merosga bo‘lgan huquqni tasdiqlash, merosni taqsimlash, merosdan voz kechish huquqlari, hozir bo‘lmagan vorislarning huquqlari, meros-mulkka nisbatan imtiyozli huquqqa ega bo‘lgan shaxslar, meros mulkdan qilinadigan xarajatlar, egasiz qolgan meros mulkining taqdirini belgilash va merosga oid huquqiy normalar yig‘indisidan iboratdir.

Voris deganda, qonunda belgilab qo‘yilgan meros qoldiruvchining qarindoshlik munosabatlari bilan bog‘langan avlod va ajdodlari, uning qaramog‘ida bo‘lgan mehnatga qobiliyatsiz boqimlari, shuningdek, qonunda belgilangan tartibda va shartlarga rioya qilib, meros qoldiruvchi tomonidan tayinlangan, uning huquq va majburiyatlari olingach, merosning o‘tishi lozim bo‘lgan, muomala layoqatiga ega bo‘lgan shaxslar tushuniladi.

Vorislik – bu ijtimoiy munosabatlarning alohida bir turi hisoblanib, mol-mulkni yoki mulkka bo‘lgan huquq va majburiyatlarni bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tishi bilan bog‘liq. Shuning uchun ham u hammadan avval, iqtisodiy hodisa sifatida va vafot etgan shaxsning mulkini, mulkiy huquq va majburiyatlarini boshqa shaxslarga o‘tish tartibini belgilaydi.

Shunday qilib, vorislik huquqi - bu meros ochilgan paytda vafot etgan shaxsga tegishli bo‘lgan mol-mulk, mulkiy huquq va majburiyatlarni merosxo‘rlarga o‘tish tartibi va shartlarini belgilab beruvchi huquqiy normalar yig‘indisidan iborat.

Demak, vorislik huquqining vazifasi vafot etgan shaxsning mulkiy huquq va majburiyatlarni boshqa shaxslarga, merosxo‘rlarga o‘tishini qonun bilan belgilangan tartibda ta’minlashdan iborat.

Gulrux RAXIMOVA,
Andijon shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

TAQDIM QILISH BO‘YICHA VORISLIK VA “MEROS TRANSMISSIYASI” NIMA?

Meros masalasi deyarli hamma xalqlarda bor. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, meros bilan bog‘liq nizolar, asosan, qon-qarindosh bo‘lgan ota (ona) va farzandlar, aka-uka, opa-singil vorislar o‘rtasida yuzaga keladi va bunga asosan ularning amaldagi qonun normalarini bilmasligi va biri boshqasining huquqini tan olmasligi sabab bo‘ladi.

Meros mulkini taqsimlashda vorislar o‘zaro kelishganlari eng maqbul yechim hisoblanadi.

Meros ochilganidan keyin meros obyektini qabul qiluvchi vorisning ham vafot etishi natijasida unga vasiyat yoki qonun bo‘yicha tegishli bo‘lgan ulush taqdiri nima bo‘ladi degan masala har bir merosxo‘rni qiziqtirishi tabiiy albatta. Mana shu o‘rinda merostransmissiyasi vujudga keladi.

Meros transmissiyasi deganda nima tushuniladi?

Fuqarolik Kodeksga muvofiq agar vasiyatnoma bo‘yicha yoki qonun bo‘yicha vorislikka chaqirilgan merosxo‘r meros ochilganidan keyin uni qabul qilib olishga ulgurmasdan vafot etgan bo‘lsa, unga tegishi kerak bo‘lgan merosni qabul qilib olish huquqi uning qonun bo‘yicha merosxo‘rlariga, agar barcha meros mol-mulk vasiyat qilingan bo‘lsa, uning vasiyat bo‘yicha merosxo‘rlariga o‘tishi tushuniladi. Meros transmissiyasi tartibida merosni qabul qilib olish huquqi bunday merosxo‘rning vafotidan keyin ochilgan meros tarkibiga kirmaydi. Vafot etgan merosxo‘rga tegishli merosni qabul qilib olish huquqi uning merosxo‘rlari tomonidan umumiy asoslarda amalga oshirilishi mumkin.

Meros transmissiyasi tartibida vorislik vasiyatnoma yoki qonun bo‘yicha vorislikka chaqirilgan merosxo‘r (transmittent) meros ochilganidan keyin, lekin uni qabul qilib olishga ulgurmasdan vafot etgan hollarda amalga oshiriladi.

Bunday hollarda unga tegishi kerak bo‘lgan merosni qabul qilib olish huquqi uning qonun bo‘yicha merosxo‘rlariga, agar barcha meros mol-mulk vasiyat qilingan bo‘lsa, uning vasiyat bo‘yicha merosxo‘rlariga (transmissarlariga) o‘tadi.

Meros transmissiyasi quyidagi shartlarda vujudga keladi:

meros ochilgan paytda vorislik huquqiga ega bo‘lgan vasiyat yoki qonun bo‘yicha merosxo‘rning borligi;

vasiyat yoki qonun bo‘yicha merosxo‘r merosni qabul qilib olishga ulgurmasdan vafot etganligi sababli uning merosdagi ulushi taqdirini hal qilish zarurati paydo bo‘lganligi;

vafot etgan merosxo‘r uning merosxo‘rlari bilan almashtirilishi mumkinligi.

Mehnatga qobiliyatsiz shaxslarni qonun bo‘yicha merosxo‘r deb topish uchun bir vaqtning o‘zida ikki holatning mavjud bo‘lishi, ya’ni bunday shaxslarning bir yildan kam bo‘lmagan muddat ichida meros qoldiruvchining qaramog‘ida bo‘lishi va meros qoldiruvchi bilan uning vafotiga qadar bir yildan kam bo‘lmagan muddat ichida birga yashagan bo‘lishi talab etiladi.

Ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi navbatdagi qonun bo‘yicha merosxo‘rlar doirasiga kiruvchi mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga kelganda esa, ular vorislikka chaqirilishi uchun faqat ularning meros qoldiruvchi vafotiga qadar uning qaramog‘ida bir yildan kam bo‘lmagan muddat ichida bo‘lganligini aniqlashning o‘zi kifoya.

Sirojidin BATIROV,
Izboskan tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

Qonunchilikka ko‘ra, vasiyat qiluvchi yoki ishonch bildiruvchi tomonidan yozilgan yoki uning so‘zlaridan notarius tomonidan yozib olingan vasiyatnoma va ishonchnoma notarial tasdiqlangan vasiyatnoma va ishonchnoma hisoblanadi.



NOTARIAL TASDIQLANGAN HUJJATLARGA TENGLASH TIRILADIGAN VASIYATNOMALAR, ISHONCHNOMALAR

Yana shunday holatlar bo‘ladiki vaziyat nuqtayi nazaridan boshqalar tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalar ham notarial tasdiqlangan vasiyatnomalarga tenglashtiriladi.

Ular quyidagilar:

kasalxonalarda, gospitallarda, boshqa statsionar davolash muassasalarida davolanayotgan yoki keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun internat uylarida yashayotgan fuqarolarning ushbu kasalxonalar, gospitallar va boshqa davolash muassasalarining bosh shifokorlari, ularning tibbiyot bo‘yicha o‘rinbosarlari yoki navbatchi shifokorlari, shuningdek gospitallarning boshliqlari, keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun internat uylarining direktorlari va bosh shifokorlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i ostida suzib yurgan kemalarda safarda bo‘lgan fuqarolarning shu kemalarning kapitanlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

qidiruv ekspeditsiyalarida yoki shunga o‘xshash boshqa ekspeditsiyalarda bo‘lgan fuqarolarning shu ekspeditsiyalar boshliqlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari;

harbiy xizmatchilarning, harbiy qismlar joylashgan, notariuslar bo‘lmagan punktlarda esa, shu qismlarda ishlovchi harbiy xizmatchi bo‘lmagan shaxslarning, ular oila a’zolarining hamda harbiy xizmatchilar oila a’zolarining harbiy qismlarning komandirlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari, ishonchnomalari va arizalari, avtomototransport vositalarini boshqarish va tasarruf etish haqidagi ishonchnomalar bundan mustasno;

ozodlikdan mahrum etish joylaridagi yoki qamoqdagi shaxslarning tegishli muassasalar boshliqlari tomonidan tasdiqlangan vasiyatnomalari, ishonchnomalari va arizalari, avtomototransport vositalarini boshqarish va tasarruf etish haqidagi ishonchnomalar bundan mustasno.

Vasiyatnomalar, ishonchnomalar va arizalarni ushbu moddada aytib o‘tilgan mansabdor shaxslar tomonidan tasdiqlash O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi belgilab qo‘yadigan tartibda amalga oshiriladi.

Qudratjon ISMOILOV,
Andijon shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

“HAJ – 2026” MAVSUMI UCHUN YANGI TARTIB JORIY ETILDI – DIN ISHLARI BO‘YICHA QO‘MITA

Saudiya Arabistoni podshohligi Haj va Umra vazirligi “Haj – 2026” mavsumi uchun yangi tartibni joriy etdi. Bu haqda Din ishlari bo‘yicha qo‘mita axborot xizmati xabar berdi.

Ma’lum qilinishicha, Saudiya Arabistoni Sog‘liqni saqlash vazirligi haj safari bilan shug‘ullanuvchi vazirlik va idoralarga har bir ziyoratchini sinchkovlik bilan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va haj safariga borish layoqatiga mos kelmaydigan kasallik bor-yo‘qligini aniqlash majburiyatini yuklagan.

Unga ko‘ra, “Haj – 2026” mavsumida ziyoratchida “Nusuk” platformasidan olingan tibbiy sog‘lomlik to‘g‘risida guvohnoma bo‘lgan taqdirda unga haj vizasi beriladi. Ta’kidlanishicha, bu talab hojilar xavfsizligi va salomatligini ta’minlashga qaratilgan.

Bayonotda, quyidagi kasalliklarga chalingan ziyoratchilar haj safariga yuborilmasligini ma’lum qildi:

• Dializ talab qiladigan buyrak yetishmovchiligi;

• Minimal jismoniy yuklamada ham namoyon bo‘luvchi yurak yetishmovchiligi;

• Davriy yoki doimiy ravishda kisloroddan foydalanishni talab qiluvchi o‘pkaning surunkali kasalliklari;

• Jigar yetishmovchiligi belgilari bilan kechuvchi jigar sirrozining og‘ir bosqichi;

• Og‘ir ruhiy va nevrologik buzilishlar;

• Qarilik demensiyasi kasalliklari;

• Homiladorlikning oxirgi uch oyi, shuningdek, yuqori xavfga ega bo‘lgan har qanday homiladorlik;

• Faol yuqumli kasalliklar (shu jumladan, silning ochiq shakli, gemorragik isitmalar va hokazo);

• Kimyoterapiya yoki boshqa immunitetni susaytiruvchi muolajalardan o‘tayotgan faol onkologik kasalliklar;

• Saudiya Haj vazirligining mazkur talablari buzilgan yoki yolg‘on ma’lumot berilgan taqdirda, Haj vazirligi tomonidan chora ko‘rilishi bildirilgan.

“Haj” va “Umra” tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha Respublika jamoatchilik kengashi ziyoratchilarni ushbu talablarga to‘liq amal qilishga chaqirgan, hamda ushbu talablar haj ishtirokchilarining hayotini va salomatligini saqlashga qaratilganini qayd etgan.

AZIZ NESIN



(Hajviya)

U 1915-yili tug‘ildi. Uyida yig‘lagani qo‘yishmadi. Onasi qo‘lini bigiz qilib tahdid qildi:

— Ovozingni o‘chir!

Kulish ham, yig‘lash ham mumkin emasdi. Otasi ham zug‘um qilardi:

— Jim bo‘l!

Agar uyda mehmonlar bo‘lsa, uni ogohlantirishardi:

— Jimgina o‘tir, shovqin solma!

Agar onasi uyda yolg‘iz qolsa, qulog‘iga quyardi:

— Baqirma, bir pasgina tinchlik bo‘lsin!

Shu tariqa u yetti yoshga to‘ldi.

* * *

U maktabga qatnay boshladi. Dars paytida endi og‘iz ochgan ham ediki muallim o‘shqirib qoldi:

— Gaplashma!

Uni doskaga chaqirishganda doimo uqtirishardi:

— Sendan nimani so‘rashsa, faqat shu haqda gapir. Ortiqcha javrama. Shu tariqa o‘n ikki yoshga to‘ldi.

* * *

U o‘rta maktabga qatnay boshladi. Endi gapirmoqchi edi, og‘ziga urishdi:

— Sendan so‘rashayotgani yo‘q. Direktor unga «Tilni tiygan boy bo‘lar» degan maqolni eslatib qo‘ydi. Turk tili muallimi shunday dedi:

— Ikki marta eshitib, bir marta gapir. Odamning ikkita qulog‘i, bitta og‘zi bor.

— Jim bo‘l!

— Ovozingni o‘chir!

— Javrama! Shu tariqa o‘n besh yoshga to‘lib qoldi.

* * *

U litseyga qatnay boshladi. Birinchi eshitgan gapi shu bo‘ldi:

— Gapirgandan ko‘ra jim o‘tirgan yaxshi!

— Ko‘p javrama!

— Og‘zingni yum!

— Jim bo‘l! Shu tariqa o‘n to‘qqiz yoshga to‘ldi.

* * *

U universitetga o‘qishga kirdi. Uyda shunday nasihat qilishdi:

— Kattalar gapirganda kichiklar jimgina quloq soladilar. Onasi tayinladi:

— So‘z – kattadan, suv – kichikdan.

Professor bir kuni shunday dedi:

— Tilingni tiyib yur!

Shu tariqa yigirma uch yoshga to‘ldi. Harbiy xizmatga chaqirildi. Bo‘linma komandiri buyurdi:

— Jim bo‘l, itvachcha!

Serjant:

— Javrashni bas qil!

Kapitan:

— Og‘zingni ochma!

* * *

U ishga kirdi. O‘rtoqlari barmoqlarini og‘ziga bosib shivirlashdi:

— Tss!

— Xudo haqqi, og‘zingni yum! Boshingga bir baloni orttirib olma. Ehtiyot bo‘l!

Boshliqlar ogohlantirib qo‘ydi:

— Har narsaga burningni tiqma!

— Buning senga dahli yo‘q!

— Nima ishing bor?

— Aralashma!

* * *

Uylandi. Xotini tayinladi:

—Sendan iltimos, har baloga burningni suqma!

Farzandlar tug‘ilib, voyaga yetishdi.

Ular aytishdi:

— Ota, bu ishga aqling yetmaydi. Aralashib o‘tirma!

* * *

Bu odam – qisman men, qisman siz, qisman hammamiz! Rivoyat qilishlaricha, o‘tmishda xotinlar pishirayotgan ovqatiga erkaklarning tilini qirqib qo‘yadigan bir og‘u qo‘shib qo‘yarmish. Bizning yemishimizga ham shunaqa og‘u qo‘shilganga o‘xshaydi. Bir qarab ko‘ring-chi, tilingiz bormikan? Biz tilimizni yutib qo‘yganmiz! Og‘zimiz boru ammo tilimiz yo‘q.

* * *

Mana endi o‘sha qisman menga, qisman sizga o‘xshaydigan odam so‘z erkinligini talab qilib yuribdi. Uning gapirgisi kelyapti. Ammo unga buyurilyapti:

— Tilingni tiy! Mening unga shunday degim keladi:

— Gapir! Gapir! Gapirsangchi! Ammo nima deysan? Qanday gapirasan? Tilimiz bormi o‘zi?..

Shodmon OTABEK tarjimasi.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон туманида яшаб, 2022 йил 7 ноябрь куни вафот этган марҳум **ХАСАНОВ ДИЛМУРОТ ТУЛҚИНОВИЧ**нинг мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон тумани, Дархон МФЙ, Истеъдод кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Н.О. Расулов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2006 йил 22 февраль куни вафот этган марҳум **ЖЎРАЕВ АНВАР ЭГАМНАЗАРОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ф.Н.Акбаров нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Дўстлик МФЙ, Бадавлат кўчасидаги уйда яшаб, 2023 йил 30 ноябрь куни вафот этган марҳум **TURGUNOV ABDUQAXOR AXMEDOVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Бобур шох кўчаси, 38-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Т.Усмонов нотариал идорасига,

Қўрғонтепа тумани, Ёрбоши МФЙ, Уйчи кўчасидаги уйда яшаб, 2023 йил 8 июль куни вафот этган марҳум **БЕКТОШЕВ БАТИРТОЙ КОДИРОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Қўрғонтепа тумани, Мустақиллик кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.А. Зайнобиддинов нотариал идорасига,

Қўрғонтепа тумани, Қўштепа МФЙ, Чорвадор кўчасидаги уйда яшаб, 2025 йил 11 июнь куни вафот этган марҳум **КАРАБАЕВ АБДУСАТТАР КУЗИБАЕВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Қўрғонтепа тумани, Мустақиллик кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.Б. Мамадалиев нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Янги хаёт МФЙда яшаб, 2018 йил 6 декабрда вафот этган марҳум **MO’MINOV ZOXIDJON ODILOVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ахмаджонов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Янги Найнаво МФЙда яшаб, 2019 йил 4 декабрда вафот этган марҳум **QODIROVA NASIBAXON XOJIMAMATOVNA**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Маматов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Номозгох МФЙда яшаб, 1976 йил 28 июнда вафот этган марҳум **СУЛТОНОВ АСКАР**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Чинобод кўчаси, 10-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.Ибрагимов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

БИЛДИРУВ

Давлат кадастрлари палатаси Андижон вилоят бошқармаси Қўрғонтепа тумани филиали томонидан 2009 йил 4 июнь куни 13/722 тартиб рақам билан рўйхатга олинган Қўрғонтепа тумани, Чорвадор МФЙ, Чиғатой кўчасида жойлашган марҳум QO’CHQAROV MARIB MAXAMADJONOVICHга тегишли бўлган уй-жойни кадастр ҳужжати

ЙЎҚОЛГАНЛИГИНИ МАЪЛУМ ҚИЛАМИЗ.

ADOLAT MEZONI

MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas’uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy. Telegram: (+998 99) 995-19-66 E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010-yil 16-martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahrirriyat kompyuter bo‘limida terildi va sahifalandi. «ZAKOVAT» nashriyot uyi MCHJda original maket asosida chop etildi. Chop etishga topshirish vaqti 17.10.2025-yil, soat 11.00. Chop etishga topshirildi 17.10.2025-yil, soat 14.00. Korxona manzili: Kosonsoy shahri, Chorbog‘ ko‘chasi, 17-uy. Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma № . 188 nusxada bosildi.

Navbatchi: M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li